

**FUQAROLIK JAMIYATI BOSHQARUV MEXANIZMLARI
TAKOMILLASHUVIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINING ROLI**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti
“Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrası
dotsenti, t.f.f.d(PhD) **Daminov Nabijon Abduolimovich***

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda “Ommaviy axborot” vositalarni, ya’ni internetni kirib kelishi hamda hozirgi globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyatini takomillashuvidagi o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, OAV, kompyuter, “ZiyoNET”, Telegram, Facebook, Windows Live Spaces, Twitter, Odnoklassniki, Xalq qabulxonalari.

Abstract: This article discusses the role and importance of the introduction of "Mass Information" tools, namely the Internet, in the development of civil society in the Republic of Uzbekistan after its independence, and its role and importance in the improvement of civil society in the current globalization environment.

Keywords: Globalization, media, computer, "ZiyoNET", Telegram, Facebook, Windows Live Spaces, Twitter, Odnoklassniki, Public Receptions.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение внедрения средств массовой информации, а именно Интернета, в развитии гражданского общества в Республике Узбекистан после обретения ею независимости, а также его роль и значение в совершенствовании гражданского общества в современных условиях глобализации.

Ключевые слова: глобализация, СМИ, компьютер, «ZiyoNET», Telegram, Facebook, Windows Live Spaces, Twitter, «Одноклассники», общественные приёмы.

Kirish

Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatning har bir oilasi va a’zosi OAVsiz hayotini tasavvur eta olmasligi va hech bo‘lmaganda u bilan bog‘liq ravishda yashayotgan bir davrda bu haqiqat yanada oydinlashadi. Bugun ommaviy axborot vositalarini “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida talqin etilishining boisi demokratik davlatlarda hokimiyat bo‘linishining uch tamoyili amal qilsa-da, ularning faoliyatlarini takomillashtirish va ularni xalq bilan bog‘lashning asosiy vositachisi bo‘lgan ommaviy axborot vositalaridir. “Bugun globallashuv davrining yana bir yirik kashfiyoti sifatida baholanayotgan - Internet tizimining yaratilishi OAV yaratilishi tarixida ulkan tarixiy burilishni yasadi va dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi “chegaralar yanada yaqinlashdi”.

Ushbu tizim bo'yicha dunyoning istalgan mamlakati bilan uning maxsus saytlari orqali aloqa qilish, shuningdek, axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lindi" [1].

Internet so'zi lot. inter — aro va net (work) — tarmoq — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoklarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi[2]. Internet tizimi 1972 yil AQSH mudofa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda.

Barchamzga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi.

Bugun yurtimizda 1053 ta Internet-kafe, 945 ta Internet provayder, 187 ta axborot-resurs markazi,[3] «ZiyoNET» yoshlar axborot portali faoliyat yuritmoqda. Internetdan foydalanuvchilarning soni esa 29 milliondan oshgan[4]. Ba'zi bir tahlillarga ko'ra ularning 80 foizini yoshlar tashkil etadi. 2022 yil sentabrdagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Telegram'da 18 million, "Odnoklassniki"da 16,7 million, Facebook'da 4,7 million, Instagram'da 3,7 million, "Vkontakte"da 2,6 million, LinkedIn'da 288 ming, Twitter'da 51,6 ming nafar o'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil qiladi.

Dunyoda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarining soni bo'yicha hozirda:

Facebook ijtimoiy tarmog'i 500 000 000 foydalanuvchisi bilan yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o'rinlarda MySpace (255 000 000 foydalanuvchi), Twitter (200 000 000 foydalanuvchi), Windows Live Spaces (120 000 000 foydalanuvchi), Habbo Hotel (120 000 000 foydalanuvchi), V Kontakte (110 000 000 foydalanuvchi), Friendster (90 000 000 foydalanuvchi), Hi5(80 000 000 foydalanuvchi), Tagged.com (70 000 000).

Odnoklassniki (odnoklasniki.ru) ijtimoiy tarmog'i maqsad va vazifalari. Bunday veb saytlarda odatda o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni joylashtirasiz (Tug'ilgan kun, maktab, sevimli mashg'ulot va boshqalar). O'z navbatida siz ham qidirayotgan qatnashchingizni shu turdagi ma'lumotlarini olishingiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning internetdagi g'alabali yurishi 1995 yilda amerikaliklarning Classmatec.com (Odnaklassniki uning ruscha analogi xisoblanadi) ijtimoiy tarmog'i yaratilishi bilan boshlandi. **Bu ijtimoiy tarmoqning maqsadi** sinfdoshlarni internet tarmog'i orqali qidirish, topish va muloqat o'rnatish hisoblanadi. **Vazifalari esa** o'zaro qiziqish to'rlarini hosil qilish va muloqatni saqlab qolishdan iboratdir. Albatta, bu veb sahifalarni yaratishdan asosiy ko'zlangan maqsad bir tomondan mablag' ishlash bo'lsa, ikkinchi tamondan sahifani ommalashtirish hamda bir xil dunyoqarashga ega bo'lganlar shaxslar guruhlarini shakllantirish hisoblanadi. **Salbiy tomoni, esa** shakllangan guruhlarini boshqarib bo'lmaydi.

Sinfdosh (sinfdosh.uz) ijtimoiy tarmog'i maqsad va vazifalari. Ushbu veb sahifa Odnoklassniki (odnoklasniki.ru) ijtimoiy tarmog'i yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo'lib, faqatgina O'zbekistonliklar fuqarolar uchun yaratilgan va moslashtirilgan. O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoqlar. O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoq saytlarini tiliga qarab quydagilarga ajratish mumkin. O'zbek tilini ham qo'llay oladigan ijtimoiy tarmoqlar. www.sinfdosh.uz www.vsetut.uz.

Feysbuk (facebook.com) ijtimoiy tarmog'i maqsad va vazifalari. 2004 yili Garvard universiteti talabasi **Mark Sukerberk** mashhur Facebook sayтини ishga tushurishga muvaffaq bo'ldi. Avvaliga facebook shunchaki talabalar uchun xabar almashuv sayti bo'lishi rejalashtirilgan edi. Lekin atigi **1 oy ichida** ushbu saytga **200 000 dan ortiq** inson tashrif buyurdi. Shundan so'ng **Mark saytning kelajagi porloq ekanligini tushundi** va uni ommalashtirish ishlarini boshlab yubordi. Ayni vaqtda esa saytdan **2 mlrddan ortiq inson** ro'yxatdan o'tgan bo'lib u dunyodagi eng ko'p foydalanuvchisiga ega saytdir. Ushbu veb sahifa ham Odnoklassniki (odnoklasniki.ru), www.sinfdosh.uz ijtimoiy tarmog'lari yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo'lib, faqatgina ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun yaratilgan va moslashtirilgan Bundan tashqari qiziquvchilar quyidagi veb sahifalarni ham ko'rishlari mumkin: Last.fm, Linjedln, MySpace. Bularning yaratilish maqsad va vazifalari ham yuqorida keltirilgan veb sahifalar bilan o'hshash.

Axborot makoni globallashtirishning hozirgi bosqichida internetning milliy va xalqaro kompaniyalar, davriy matbuot, TV va radio bilan munosabatlari yanada kengayib, boyib bormoqda. Demak, ommaviy axborot vositalarini faoliyatini yanada liberallashtirish Fuqarolik jamiyatini mazmunini oshirish - davr talabi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi[5] Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kuyidagi qabulxonalarini tuzildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida;

Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmoniga asosan:

“Aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash;

Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qat'iy amal qilgan holda, to'liq, xolis va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo'yicha davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o'tkazish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko'rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo'yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo'li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalarning asosiy vazifalari etib belgilangan”[6].

Xulosa qilib aytganda, Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda “Xalq qabulxonalari” Konstitutsiyamizning 2- moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar” degan ezgu tamoyilni amalda ro'yobga chiqarish uchun tashkil etiladigan ochiq muloqotning muhim mehanizimi bo'ladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. I. Ergashyev va boshqalar. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2019, 129 – bet.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/internet-uz/>
3. AKT: tezkor, qulay va ilg'or// Xalq so'zi. - 2012. - 24 aprel.
4. Aloqa va axborotlashtirish masalalari mukokamasi //Xalq so'zi. - 2012. – 24 iyul.
5. <https://lex.uz/docs/-3089924>
6. I. Ergashyev va boshqalar. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2019, 135 – bet.